



Received: July 28, 2024  
Accepted: September 16, 2024  
Available online: September 25, 2024

## Zohid Sadiqov

Filologiya fanlari doktori, professor  
Namangan davlat universiteti  
Namangan, O'zbekiston

### QADIMGI TURKIY SITUATIV REALIYALARNI ZAMONAVIY TILLARGA TARJIMA QILISH USULLARI

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolaning maqsadi – realiyalarning muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan situativ realiyalarning tabiati, ularning badiiy asar matnida tutgan uslubiy o'ziga xosligi hamda zamonaviy o'zbek, nemis va ingliz tillariga tarjima qilish usullarini aniqlash. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vaziflarni bajarishni ko'zlagan: realiya va situativ realiya tushunchasiga tavsif berish va unga turli munosabatlarni aniqlash; situativ realiyalar tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlik masalasiga oydinlik kiritish; Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llanilgan situativ realiyalarni aniqlash va ularning qanday lisoniy-uslubiy xoslikka egaligini tayin etish; qadimgi turkiy holat (situativ) realiyalari o'ziga xos xususiyatlari va ularni hozirgi tillarga tarjima qilish usullarini tayin etish; realiyalar tarjimasida davomida turli tillarga qayta tarjimalarining amalga oshirish sabablarini aniqlash hamda avvalgi tarjimadan keyingi tarjimaning ustun jihatlari baho berish; holat realiyalarining muhim xususiyatlari, realiyalar tushunchasiga nisbatan jahon olimlarning munosabatlarini aniqlab, ularning ilk turkiy adabiy dostonida qo'llanilishi keltiriladi, so'ngra xulosa va mulohaza o'rinda ularni Yevropa tillariga tarjima qilish yo'llari ko'rsatiladi.

Bunday ishni amalga oshirish uchun qiyoslash, chog'ishtirish, tahlil, umumlashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mazkur tadqiqot usullarini qo'llash vositasida olingan natijalarning tarjima sifatiga ta'sir etadigan muhim tomonlari ko'rsatildi va bular kelajakda amalga oshiriladigan yangi, yanada sifatli nashrlar uchun

## Zohid Sadikov

Professor, Doctor of Sciences in Philology  
Namangan State University  
Namangan, Uzbekistan  
E-mail: sadikov.zohid@mail.ru  
ORCID iD: 0009-0008-3886-1152

### METHODS OF TRANSLATING ANCIENT TURKIC SITUATIONAL REALIAS INTO MODERN LANGUAGES

#### ABSTRACT

This scientific article aims to investigate the distinctiveness of situational realias as significant components of realias, their methodological uniqueness in artistic texts, and translation methods into modern Uzbek, German, and English. To achieve this, the following tasks are proposed: elucidate the concept of realia and situational realia and define various perspectives on it; clarify the issue of equivalence and adequacy in translating situational realias; identify situational realias in Yusuf Khass Hajib's "Kutadgu Bilig" and determine their linguistic and stylistic characteristics; ascertain the features of ancient Turkish situational realias and their translation methods into modern languages; determine the rationale for re-translations into different languages and evaluate the superior aspects of subsequent translations; establish the salient features of situational realias, the unique perspectives of scholars on the concept of realias, their use in the first Turkish literary epic, and demonstrate translation methods into European languages.

This study utilized research methods including comparison, analysis, and generalization. The findings showed a notable impact on translation quality and indicated their potential as a guide for future, higher-quality publications. Currently, in defining the concept of realia, perspectives from scholars in translation studies, linguistics, and literary studies have been synthesized and their key aspects highlighted, with emphasis on authorship.

Furthermore, through the identification of

muhim qo'llanma bo'la olishi asoslandi. Ayni paytda, realiya tushunchasini aniqlashtirishda mazkur terminga tarjimashunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan turli olimlarning munosabatlari umumlashtirilib, ularning eng muhim tomonlari ko'rsatildi hamda mualliflik asnosida tavsiflandi.

Shuningdek, situativ realiyalar tarjimasida qo'llanilgan turli usullarning aniqlanishi ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ochib beriishga hamda o'rni bilan maqbul tarjima usullarini tavsiya etishga imkon berdi. Demak, realiyalarga xos bo'lgan muayyan makon va zamon sirasiga kiruvchi har bir holatda realiyalar u yoki bu ko'rinishda situativlik kasb etadilar, shu bois, bunday realiyalarni tarjima qilish uchun alohida tayyorgarlik talab etiladi.

**Kalit so'zlar:** qadimgi turkiy til, situativ realiya, tarjima usullari, noverbal muomala vositalari, realiya, ekvivalentlik, adekvatlik, lisoniy-uslubiy xoslik, turkiy adabiy doston, tushuncha.

## KIRISH

Jahon tarjimashunosligida ko'hna o'tmishda yaratilgan asarlarni bugungi kitobxonlarga tanishtirishda tarjimaning o'rni beqiyos ekanligi keng e'tirof etilar ekan, bunday manbalarning o'sha davr tarixiy va milliy o'ziga xosligini ifodalovchi muhim ma'lumotlarga boy ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bugungi kungacha XI asr Markaziy Osiyo hayoti bo'yicha Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk"idan tashqari yagona ilmiy va adabiy manba hisoblanmish Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida o'sha davrga xos bo'lgan xos so'zlardan faol foydalanilgan. Jahon so'zshunosligidagi eng yosh fanlardan bo'lmish tarjimashunoslikda keyingi paytlarda tez-tez kun tartibiga qo'yib borilayotgan *realiya* tushunchasi aynan anu shu tarixiy va milliy o'ziga xosliklarni o'zida takrorlanmas darajada mujassamlashtirganligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqola ana shu sohadagi bo'shliqlarni to'ldirishni maqsad qiladi. Ushbu muammo Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarining qadimgi turkiy matni transkripsiyasi, uning hozirgi o'zbek tilidagi tabdili, shuningdek, nemis tilidagi dastlabki nashr bo'lmish variantini topishni istardik. Maqolada qadimgi turkiy obidadan qiyosiy tahlil uchun olingan barcha misollarni ham *realiya* deb atashga da'voymiz yo'q. Ammo ular u yoki bu darajada ana shu tushunchaga yaqinligi va muayyan milliy va davriy ahamiyat kasb etishini inobatga olinganligini eslatib o'tmoqchi edik. Holat realiyalarida ba'zan matn ichi sirasiga kiruvchi o'ziga xos noverbal, aniqrog'i, harakat, turq-tarovat va imo-ishoralar bilan bog'liq bo'lgan turli xil tasvirlarga duch kelamiz. Yuqoridagi misolda keltirilganidek, imo-ishora va turli harakatlardan iborat holat realiyalari ham turli xalqlarda har-xil, gohida aks ma'no anglatishlari mumkin. Jumladan, oddiy salomlashishga misol keltiradigan bo'lsak,

various methods employed in the translation of situational realias, their advantages and disadvantages were revealed, and appropriate translation methods were recommended. Thus, in each instance of a specific space and time characteristic of the realias, the realias become situational in one way or another, necessitating special preparation for the translation of such realias.

**Key words:** ancient Turkish language, situational context, translation methodologies, non-verbal communication modalities, realia, equivalence, adequacy, linguistic and stylistic features, Turkish literary epic, conceptualization.

inglizlar boshlarini qimirlatish bilan, ispan va lotin amerikaliklar orqa kuraklariga urib qo'yish, fransuzlar o'pishib, yaponlar engashgan holda bukilib, ruslar esa o'zaro qo'llarini siqib salomlashadilar. Biror narsaning ijobiy ekanligini tasdiqlab, ma'qullamoqchi bo'linsa: ruslar qarsak chalish, amerikaliklar hushtak chalish yoki stolga tappillatib urish; yevropalik talabalar ma'ruza yaxshiligiga ishora sifatida o'tirgan stollariga mushtlari bilan taqillatish orqali. Tarjimon ana shunday holat realiyalari mohiyatini yaxshi bilishi, ularni tarjima o'quvchisi uchun tushunarli tarzda izohlashi kerak bo'ladi. Harakat, turq-tarovat va imo-ishoralar turli xalqlarda har xil talqin qilinishi mumkin. Masalan, o'zbek o'quvchisi yoki talabasi dars paytida eshikka chiqmoqchi yoki mashg'ulotdagi mavzuga o'z munosabatini bildirmoqchi bo'lsa, qo'lini yuqoriga ko'taradi. Nemislar bunday paytda ikki barmoqlarini ko'taradilar. Xitoy yoki yapon boshiga tushgan kulfat boshqalarni ranjitmasligi uchun jilmayishga harakat qilishadi. Ruslar yoki o'zbeklar barmog'i bilan "bir, ikki, uch" deb sanaganlarida qo'l barmoqlarini birma-bir buka boshlaydilar. Bir qator G'arbiy Yevropa mamlakatlarida esa, aksincha, barmoqlar birma-bir yoziladi. Bizda sanoq jimjiloqdan boshlansa, g'arbiy yevropaliklar sanoqni bosh barmoqdan boshlaydilar.

Realiya so'zi lotincha *realia* so'zidan olingan bo'lib, u *ashyoviy*, *haqiqiy* degan ma'nolarni anglatadi. O.S. Axmanovanning "Словарь лингвистических терминов" ("Lingvistik atamalar lug'ati")da unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Realiya – borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, ma'lum bir tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik" [Akhmanova, 1969].

Mazkur maqolada jahon tilshunosligi, adabiyotshunosligi va tarjimashunosligida *realiya* tushunchasiga nisbatan aytilgan turli qarashlarga munosabat bildirish, shu asosda turkiy xalqlarning ilk yozma obidasi bo'lmish "Qutadg'u bilig" asaridagi situativ realiyalarning hozirgi o'zbek, ingliz [Hajib, 1983] va nemis [Radloff, 1891] tillaridagi tarjimalarini asliyat bilan solishtirish va tarjimaviy muammolarni aniqlash; qiyosiy chog'ishtima tahlil asosida mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish va eng maqbul tajima usullarini tanlash mezonlarini belgilash; tahlil qilinayotgan situativ vaziyatning umumiy tuzilmasini va o'ziga xosligini ko'rsatish; belgilangan mezonlar asosida muomala madaniyati bilan bog'liq faoliyatni tasvirlaydigan matn xosliklarni aniqlab, ularni tarjima matnida qayta ifodalash imkoniyatlarini ko'rsatish kabi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan. Bunda madaniy, semantik ma'nolarni aniqlash; qadimgi turk tilidagi asar matnidagi tegishli ashyoviy vaziyatlar ta'rifini ularning nemis va ingliz tillaridagi tarjimalari bilan solishtirish hamda ularga oid komponentlarning semantik ma'nolarining o'xshashligi va turlarini belgilash talab qilinadi.

### TADQIQOT METODLARI

Maqolada qiyoslash, chog'ishtirish, tavsiflash, tahlil qilish va umumlashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mazkur tadqiqot metodlari orqali ayni mavzu doirasida bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlar tarixi ham keltirilib, ular

tavsiflandi. Ma'lumki, har qanday tarjima tahlili qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik, agar badiiy tarjima tadqiq etilayotgan bo'lsa, qiyosiy uslubshunoslik (stilistika) fanlari yutuqlari asosida olib boriladi. Tarjimada so'z tanlash mahorati masalasini o'rganish uchun esa lug'atshunoslik va intuitsiyaga tayanish talab etiladi. Biz mazkur maqolani tayyorlashda muammoning ana shu jihatlariga ham e'tibor qaratdik.

Aytish kerakki, fanda realiyalarning muayyan koloritni aks ettirish xususiyatlari to'g'risida XX asrning 50-yillarida tilshunoslar bahs yurita boshladilar. Bu borada bir to'xtamga kelish ancha murakkab kechdi. Buning asosiy sababi esa o'sha munozara olib borayotgan tadqiqotchilarning ishlarida aynan mazkur masala diqqat markazda bo'lmaganligi edi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarning tahlili natijasida realiyalarga ikki xil qarash borligini ko'rish mumkin. U ham bo'lsa, birinchisi, *tarjima nuqtayi nazaridan qarash*, ikkinchisi esa, *mamlakatshunoslik asnosida yondashish*. Ayrim olimlar realiyaga ta'rif berishda to'liq bo'lmagan yoki mavhum xulosalar chiqaradilar. Aniqrog'i, mazkur til birliklarining faqat bir tomonigina yoritib beriladi xolos. Shu bois ushbu tushunchani oydinlashtirishda avvalgi ta'riflarni bir ko'zdan kechirish zarurati mavjud. Tan olish kerakki, realiyashunoslik borasida rus tadqiqotchilari ancha faoldirlar. Jumladan, tilshunos M.L. Vaysburd realiyaga mamlakatshunoslik asnosida yondashar ekan, bu haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Bu ma'lum bir mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxonalar yoki tashkilotlar, kundalik narsalar va buyumlar, tarixiy shaxslar hamda boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat tushunchadir" [Vaysburd, 1972]. Ayni paytda ushbu fikr realiya masalasini yanada jiddiyroq o'ylab ko'rishga da'vat etadi. Rus olimi L.N. Sobolev realiyalarga nisbatan *ekvivalentli nuqtayi nazaridan qarab* ish ko'radi. Uning fikriga ko'ra, "realiyalar – maxsus xususiyatga ega bo'lgan, bir tilda va boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida ekvivalentlari bo'lmagan milliy so'z va so'z birikmalardir" [Sobolev, 1952; 281]. Ammo bunday qarashda mamlakat hayotidagi turli o'zgarishlar, taraqqiyot bosqichlari bo'lishi hamda bir mamlakatda keng tarqalgan narsalar boshqasida unday bo'lmashligi, shuningdek, bunday xil so'zlarning tillararo bir-biriga o'tib turishi mumkinligi e'tibordan qochirilgan. Bunga misol tariqasida sobiq ittifoq davrida paydo bo'lgan "sputnik" so'zini keltirish mumkin. Mazkur so'z butun dunyo bo'ylab tarqalib ketganligi ham haqiqat. Chunki, dunyoda ilk bor aynan ana shu davlatda mazkur ish amalga oshirilgan. Muayyan so'zning realiya tarzida paydo bo'lishi, avvalo, o'sha realiya yaratilgan hudud, mamlakat, millat, elat bilan bog'liq bo'lishini ham nazardan qochirish lozim. Realija muayyan xalqda qanday ahamiyat kasb etishi bilan u boshqa mamlakatlarga, balki dunyo bo'ylab tarqalib ketishi ham mumkin. Taniqli tarjimashunos olim V.M. Rosselsning ta'kidlashicha, realiyalar – tarjima qilinayotgan tilga kirib kelgan va asliyat tilida muayyan milliy, mahalliy narsalar yoki tushunchalarning nomini ifodalaydigan so'zlardir [Rossel's, 1972; 67].

"Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" ("Словарь литературоведческих терминов")da realiyalarga anchagina batafsil izoh berilgan: "Realiyalar – u yoki bu xalqning tarixi, madaniyati, maishiy hayoti yoki yashash davriga xos narsalar, tushunchalar va voqea-hodisalarni ifodalovchi xos so'zlardir" [Timofeyev & Turayev, 1974]. Realiyalar so'z birikmalari, frazeologizm, maqol, matal ham bo'lishi mumkin.

Lingvistik tarjimashunoslikning yirik naraziyotchilaridan biri bo'lgan L.S. Barxudarov realiyalarga bir qadar muxtasar ta'rif bergan: "Realialar – shunday so'zlarki, ular boshqa tilda gaplashuvchi xalqlarning tillarida, amaliy hayotlarida mavjud bo'lmagan leksik birliklar hisoblanadi" [Barkhudarov, 1975; 95]. A.V. Fyodorov ushbu ta'rifga tanqidiy qaraydi. Uning fikricha, realialar faqat so'zlar emas, balki muayyan xalqning hayotidagi narsa va voqea-hodisalarning nomini ifodalovchi so'z va so'z birikmalar bo'lishi mumkin. Olim realialar haqida emas, balki real hayotda mavjud narsalarning nomlari haqida gapirishni tavsiya etadi. Realialarni to'g'ri tushinishda nafaqat unga berilgan ta'rif, balki ushbu so'zning boshqa terminlar bilan aloqasida ham tafovutlar borligi ko'zga tashlanadi. Yana bir rus olimasi L.I. Sapogovaning fikricha, realiya so'zlar deganda tilga o'zlashtirilgan so'zlarning biri nazarda tutilib, ular chet tilidagi maishiy va mahalliy narsalarning nomlarini ifodalovchi maxsus so'zlar bilan maksimal darajada ohangdoshlikka ega bo'ladilar [Sapogova, 1979]. Ammo o'zlashma so'zlar, asosan, lug'atlarda aks ettiriladi. Demak, ular mazkur tilning lug'at xazinasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Realialar ham ko'p marotaba qo'llanilishi, muayyan til lug'atlaridan joy olishi mumkin. Ammo ular orasida faqat maxsus sohalarda, jumladan, matbuotda qo'llaniladiganlari ham bo'lib, ular lug'atlarga kiritilmagan. Shu sababdan bunday realialarni o'zlashgan so'zlar tariqasida qo'llash tavsiya etiladi. Ayni paytda har qanday realiyaning ham izoh va tavsif berib bo'lmaydi. Bu jarayon realialarni tarjimada qanday usul bilan tarjima qilinishiga bog'liq ekanligidir. Mazkur muammo jahon tilshunosligida muayyan tarzda o'rganilgan. Jumladan, T.Xuxuni rahbarligidagi zamonaviy rus tilshunos olimlari diniy mavzudagi muqaddas kitoblardagi realialarni tarjima qilish tamoyillari haqida fikr bildirganlar [Khukhuni et al., 2019]. Bunda ular, asosan, atoqli otlar (ismlar) hamda boshqa arxaik realialar tarjimasida izohlash va tushurib qoldirish usullariga munosabat bildirishgan. Ma'lumki, internatsionalizmlar (baynalminal so'zlar) realiyaning terminiga yaqin ma'noni anglatadilar, ular shunday so'zlarki, milliy tilga boshqa tillardan o'zlashgan umumiy tirof etilgan so'zlar hisoblanadi. Uning realiyalarga yaqinligi shundaki, realialar biron-bir tilga tarjima vositasida kirib kelganlaridan keyin bir muddat o'z maqomlarini saqlab turadilar, ammo vaqt o'tishi bilan hamma uchun taniqli bo'lib qolganlaridan keyin internatsionalizmlarga aylanadilar. K.Ryomer va B.Matskelar *ekzotizm va moda so'zlarni* ham realiyalarga yaqin tushuncha sifatida e'tirof etadilar va ularni realialardan farq qilinishi kerakligini ta'kidlaydilar [Römer & Matzke, 2005; 212].

Realialarga *stilistika* fani nuqtayi nazaridan qarab, salmoqli tadqiqotlar yaratgan olimlardan biri E.Rizeldir. U realialar stilistikaga oid tadqiqotlarning ham obyekti bo'lishi mumkinligi, realialarning milliy, mahalliy, muayyan makon va zamongagina xoslikka, chegaraga egaliklari ularning matnning turli kontekstlarida, xususan, ma'lum bir sohaga oid tushunchalarni ifodalashda muhim rol o'ynashlariga alohida ahamiyat qaratgan [Riesel & Schendels, 1975].

Litva respublikasining Vilnyus universiteti tadqiqotchisi E.Alosevichenening "Realia tushunchasining film satr ostiga berilishiga oid: "Emila" nomli litva tarixiy-dramatik filmi misolidan" nomli maqolasida realialarni film tarjimalarida

qo‘llanilishi masalasiga munosabat bildirilgan [Alosevičienė, 2022]. Bunda muallif filmlar kadri satr ostida beriladigan yozuvlar orqali beriladigan tushunchalar filmdagi realiyalar mohiyatini ochib berishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi va bunday tarjima audiovizual tarjima tamoyillariga kirishini uqtirib o‘tadi.

H.H. Dryossiger o‘zining realiya tushunchasi to‘g‘risidagi maqolasida realiyalarni tarjimashunoslik asnosida qarab, bir tildagina mavjud bo‘lib, ularning boshqa tilga aynan tarjima qilib bo‘lmasligi jihatiga alohida e‘tibor qaratadi va bunda tarjima matnida bir bo‘shliq hosil bo‘lmasligi uchun realiyani transkripsiya yoki transliteratsiyalab, maxsus izoh berish ehtiyoji borligini ta’kidlaydi [Drössiger, 2017].

V.A. Razumovskaya o‘zining “Sankt Peterburg universiteti Axborotnomasi”da chop etilgan “Переводимость культурной информации и стратегии художественного перевода” (“Madaniyatga oid axborot tarjimasi va badiiy tarjima istiqboli”) nomli maqolasida realiyalar har qanday madaniy kontekstda muhim ahamiyatga ega bo‘ladigan omil ekanligi va ularni tarjima qilishda ana shu madaniy kontekstga ahamiyat qaratish lozimligini alohida ko‘rsatib o‘tgan [Razumovskaya, 2016]. I.V. Nechayeva o‘zining Rossiyaning Ural federal universitetida chop etiladigan nufuzli “Вопросы ономастики” xalqaro jurnalida e‘lon qilgan “Антропонимы в письменной речи” (“Antroponimlarni yozma nutqda qo‘llash”) nomli maqolasida shaxs nomlarini matnda to‘g‘ri yozishda alohida ahamiyat borligiga e‘tibor berib, ular realiyalarning muhim vositalaridan biri ekanligiga e‘tibor qaratgan [Nechayeva, 2023].

Jahon tarjimashunosligida realiyashunos olimlar S.Vlaxov va S.Florin o‘zlarining “Непереводимые в переводе” (“Tarjimada tarjima qilinmaydigan jihatlar”) nomli monografiyasida [Vlaxov & Florin, 2006] holat (situativ) realiyalar xususiyatlariga to‘xtalib, ular muayyan xalq milliy o‘ziga xosligini aks ettirishda muhim rol o‘ynashini alohida ta’kidlashadi. Ma’lumki, realiyalarni bir tildan ikkinchisiga aynan tarjima qilib bo‘lmaydi. Chunki, boshqa tilda ularga aynan mos keladigan realiyaning o‘zi yo‘q. Shuning uchun ham ular realiya deb ataladi. Bu termin, asosan, tarjimashunoslikda qo‘llaniladi. Bolgar olimlari realiyalar turkumiga, asosan, so‘z va so‘z birikmalaridan yasalgan xos so‘zlarni kiritadilar. Ayni paytda shunday realiyalar ham bo‘ladiki, ular bitta so‘z yoki birgina so‘z birikmasidan iborat bo‘lmay, butun boshli gap, abzats va boshqa kattaroq kontekstual birlikdan iborat bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, S.Vlaxov va S.Florinlar ularni situativ realiya deb ataydilar. Shu o‘rinda, situativ (holat, vaziyat) realiyalarning o‘ziga xosligiga munosabat bildirishimiz lozim. Vaziyat tizim sifatida universal xususiyatga ega bo‘lishi mumkin, ya’ni u har qanday madaniyatga xos bo‘lishi mumkin (masalan: ovqatlanish holati insonning fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqadi va har qanday milliy madaniyatga xosdir). Biroq bu holatning elementlari, ular o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati va ularga jamoatchilik ongining bahosi sezilarli darajada farq qilishi mumtin. Bolgar olimlari situativ realiyalarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilishning quyidagi umume’tirof etilgan usullarini ko‘rsatadilar. Jumladan:

I. Transkripsiya.

II. Tarjima (almashtirish).

### III. Neologizmlar vositasida:

- kalka;
- yarim kalka;
- o‘zlashtirish;
- semantik neologizm.

### IV. Taxminiy tarjima:

- jins va tur jihatdan mutanosiblik;
- funksional (vazifaviy) analog (muqobillik);
- tavsiflash, tushuntirish, izohlash.

### V. Kontekstual tarjima [Vlakhov & Florin, 2006; 341]

Realialar va ularning tarjimasiga nisbatan aytilgan yuqoridagi munosobatlar ularning konkret badiiy asarda qo‘llanilishi borasida ham aniqlik kiritilishini taqazo etadi. Biz ushbu maqolada XI asr turkiy xalqlarining birinchi yozma asari “Qutadg‘u bilig”da situativ realialarning qo‘llanilishi va tarjima muammolari masalasiga munosabat bildirishni maqsad qilganmiz. Shu sababli, dastlab, mazkur asarning o‘rganilishidagi eng muhim jihatlariga ham e‘tibor qaratish ehtiyoji bor. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini jahon turkshunosligi va tarjimashunosligida tadqiq qilish borasida maxsus xronologik bibliografiya nashr etib kelinmoqda. Uning 2016-yildagi nashri ma‘lumotlariga ko‘ra asar to‘g‘risidagi ishlarning soni 687 taga yetgan bo‘lsa [Uچار, 2015], bizning keyingi kuzatishlarimiz natijasida bu ma‘lumot 2019-yilga kelib 847 tani tashkil qilmoqda [Sadiqov, 2019; 84]. Asarni o‘rganishda dastlab uning tarjimonlari bo‘lmish nemistilli tadqiqotchilar H.Vamberi va V.Radlov amalga oshirgan ishlar, so‘ngra O.Alberts [Alberts, 1901], M.Xartmann [Hartmann, 1902], T.Menzel [Menzel, 1925], L.Mitler [Mitler, 1988] tadqiqotlari, AQSh olimlaridan R.Denkoff [Dankoff, 1979] hamda shu asosda amalga oshirilgan turkiyalik olimlardan T.Tekin [Tekin, 1989], R.Arat [Arat, 1947; 1959], rus va qardosh xalqlar turkshunoslaridan S.Ye. Malov [Malov, 1951], A.Valitova [Valitova, 1958], I.Stebleva [Stebleva, 1971; 1976], S.Ivanov [Ivanov, 1983], E.Najib [Nadzhip, 1989] lar amalga oshirgan tadqiqotlar asarni jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan keng e‘tirof etilganligini ko‘rsatadi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Bizningcha, *situativ realialar tarjimasiga* nisbatan yuqoridagi usullardan kontekstual tarjima ko‘proq mos keladi. Ayni paytda bunday xos so‘zlarni qadimgi turkiy tildan G‘arbiy Yevropa tillari (nemis va ingliz)ga tarjima qilish muammolari hali maxsus o‘rganilmay kelinmoqda. Biz ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi [Hojib, 1971] ana shunday realialarning nemis va ingliz tillariga tarjima qilinishi masalalari to‘g‘risida fikr yuritamiz. Zero turkiy tillardan nemis va ingliz tillariga tarjimaning bunday jihatlarini o‘rganish avvalo tarjima nazariyasi va amaliyoti, qolaversa, qiyosiy tilshunoslik hamda qiyosiy adabiyotshunoslik fanlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Qutadg‘u bilig” asaridagi holat (situativ) realialarning nemischa talqini haqida quyidagilarni aytishimiz mumkin. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarining

to‘liq nemischa tarjimasini V.Radlov amalga oshirgan [Radloff, 1891]. V.Radlov tajribali tarjimon, turkiy tillarning bilimdoni. Uning turkiy tillar lahjasiga oid ko‘p jildli lug‘atini butun dunyo tilshunoslari keng e‘tirof etishadi. V.Radlov Markaziy Osiyoga H.Vamberi kabi sharq falsafasi va islom dini arkonlarini chuqur o‘rganib, darvesh qiyofasida piyoda kelmagan bo‘lsa-da, jumladan, O‘zbekistonga u XIX asrning oxirlarida Chor Rossiyasining harbiy qo‘shinlari hamrohligida tashrif buyurgan va turkiy tillar grammatikasi, xususan, turkiy so‘zlar morfologiyasi borasida anchagina tadqiqotlar yaratgan. Ammo uning Qoraxoniylar davri urfodatlarini maxsus o‘rganmaganligi, xususan, “Qutadg‘u bilig”ning Qohira nusxasi matni transkripsiyasiga nisbatan noto‘g‘ri tamoyil qo‘llanganligi uning nemischa tarjimasining ham anchagina mavhum chiqishiga olib kelgan.

Quyida “Qutadg‘u bilig”da aks etgan turq-tarovat, imo-ishora va boshqa tana holatlari aks etgan realiyalar tasvirining nemischa talqiniga e‘tibor qaratamiz. Asarda xizmatkorning podshoga ro‘baro‘ kelishi chog‘ida uning *ko‘zlarini yerga qadab turishi* va *quloqlarini atrofqa qaratishi* lozimligini nemis tarjimoni asliyatdagi *tz* (to‘g‘ri tutmoq, sergak bo‘lmoq) o‘rniga *törda* tarzida tushunib, uni *Ohren aber zum Ehrenplatz, ya’ni quloqlaringni hurmatli joy bo‘lgan to‘rga qarat!* – deb talqin qilgan. Natijada Qoraxoniylar saltanati saroyida xizmatkor podsho qabulida unga ro‘baro‘ kelib qoladigan bo‘lsa, *quloqlarini to‘rga qaratilishi lozimligi* kabi tasavvur paydo bo‘lib qolgan. Tabiiyki, bunday tamoyil, qadimgi turkiy tildagi *holat realiyasining* nemischa tarjimasini asliyatga muqobil bo‘lishiga monelik qiladi. Podsho oldida turgan xizmatkorning o‘zini qanday tutishi lozimligi haqidagi qadimgi turkiy holat realiyasi tasvirida Yusuf Xos Hojib podshoga duch kelgan xizmatkorning o‘zini tutishi borasidagi o‘gitlarida dastavval o‘zini tuta bilishi, ko‘zini uning uchun qaratishi va imkon qadar yerga qarab turishi hamda quloqlarini ziyrak tutishidan so‘ng qo‘llari harakatiga kelganda, asliyatda *so‘l (chap) qo‘lni o‘ng qo‘l ustiga qo‘yilishi* lozimligi aytiladi. Ammo nemischa tarjimada negadir *o‘ng qo‘l ustiga so‘l (chap) qo‘l qo‘yilishi* kerakligi ta’kidlangan. Qo‘llarning o‘rni almashib qolgan. Undan so‘ng O‘gdo‘lmish xizmatkorning podsho eshigidan kirayotganida *o‘ng oyog‘ini* oldin tashlab kirishi lozimligi to‘g‘risida gapirsa, nemis tarjimon *gehe dich nach vorn, ya’ni faqat to‘g‘riga qarab yurishni* gapiradi. Buning sababi nasroniylarda o‘ng oyoq va o‘ng qo‘lga munosabat masalasiga qarashlari boshqacharoqligidan bo‘lsa kerak. Shu sababdan, tarjimon bunga ortiqcha ahamiyat bermagan. O‘zbeklarda *ishing o‘ngidan kelsin* deb duo qilinadi. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, bu duoning tagida ham *o‘ng so‘zi* yotibdi. Nasroniylarda, jumladan, nemislarda bunday holatda *Der Gott wird helfen, deine Wünsche zu verwirklichen, ya’ni, Xudo sening niyatingga yetishingda yordam bersin,* – deyiladi.

Yuqoridagi baytlarda asarda xizmatkorning bek huzuriga kirganida amal qilinishi lozim bo‘lgan holat tasvirlangan bo‘lsa, keyinroq, bevosita saroy darvozasidan kirgandan keyin lozim bo‘lgan o‘zni qanday tutishi kerakligi borasidagi holat realiyalarini uchratamiz:

Күвэзлэнмэ элгин сала кирмэгил

Элиг алшу түтшү йэмэ кирмэгил [Hojib, 1971; 4009].

Йана бағдаш илмә йанын йатмағыл  
 Үнүн қатғура-сән қатығ күлмәгил [Hojib, 1971; 4012].

Ma'nosi:

Gerdayma, qo'lingni solintirib kirmagin.  
 Qo'l olishib, tutishib ham kirmagin.  
 Yana chordana qurib o'tirma, yon bosh bilan yotmagin,  
 Sen ovoz bilan qah-qah otib kulmagin.

E'tibor bergan bo'lsangiz, yuqoridagi baytlarda muallif o'sha davr saroyida ayonlarning o'zini tuta bilishi to'g'risida o'ziga xos turkiy, qolaversa, sharqona koloritni mujassamlashtirgan holat (situativ) realiyalarini tasvirlagan. Ayniqsa, qo'lni qovushtirish va chordana qurish kabilar ana shunday o'ziga xoslik hisoblanadi. Agar tasavvur qilib ko'rsangiz, G'arb imperiya saroylarida, umuman G'arbda *chordana qurib o'tirish* udumga kirmaganligini bilamiz. Endi bu holat realiyasining nemischa tarjimadagi talqiniga e'tibor beraylik:

Sei nicht stolz! tritt nicht mit herabhängenden Händen ein!  
 Stehe nicht da, indem du die Hände reichst oder festhältst! [Radloff, 1891; 4063]  
 Sei auch nicht untauglich, liege nicht auf der Seite!  
 Lache nicht mit lauter Stimme! [Radloff, 1891; 4066]

Ma'nosi:

Qo'lingni osiltirib yurib u yerda mag'rurlanma!  
 Qo'lingni xuddi eng boy odam kabi tutib turmagin!  
 Layoqatsiz bo'lma, bir chekkada yotma!  
 Baland ovoz bilan kulma!

Nemischa tarjimada V.Radlov biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, sharqona chordana qurib o'tirishni tushunmaganligi ko'rinib turibdi. Shu sababdan, yana o'zining avvalgi umumlashtiruvchi va taxminiy tarjima tamoyilidan voz kechmay, faqatgina layoqatsiz bo'lmasliknigina uqtiradi. Natijada asliyatdagi sharqona holat realiyasining tarjimada mavhumlashtirilishiga olib kelingan.

Do not enter swinging your arms.  
 Do not stand with someone holding his hand.  
 Do not cross your legs or slump to one side [Hajib, 1983; 173].

Ma'nosi:

Qo'lingni osiltirib ichkariga kirma.  
 Biror kishi bilan ham qo'l ushlab turma!  
 Oyoqlaringni chalishtirma yoki bir tomonga og'dirma.

Inglizcha tarjimaning har holda avvalgi nemischa matndan aniqroq ekanligi ko'rinib turibdi. Ammo R.Dankoff ham sharqona chordana qurib o'tirishni to'g'ri tushunmaganligi ko'rinib qolgan. Natijada asarning amerikacha talqinida o'ziga xos G'arbcha oyoqni chalishtirib o'tirish tasviri paydo bo'lib qolgan. Bizningcha, bunday holatlarda *having crossed and having drawn in under itself legs* (oyoqni chalishtirgan holda bukib, o'ziga tortgan holda o'tirish) tarzida tasvirlansa to'g'riroq bo'lar edi.

Nemischada esa, *Gekreuzt und unter sich die Beine unterschlagen* tarzida ifodalansa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Demak, yevropaliklarda niyatning amalga oshishida o‘ng yoki chapning farqi yo‘q ekan. Bek huzurida o‘zni qanday tutishga oid holat realiyasining nemischa talqinidan shunday xulosa qilish mumkinki, tarjimon asliyatda aks etgan qadimgi turkiy holat realiyasi mohiyatini, qolaversa, o‘sha davrdagi maxsus muomala odoblari to‘g‘risidagi manbalar bilan yaxshi tanish bo‘lmaganligi ko‘rinib turibdi. Bu, eng avvalo, asliyatdagi realiyalar transkripsiyasida ko‘zga tashlanadi. Holat realiyalarida har bir harakat va imo-ishora muhim ma‘no anglatishini unutmazlik lozim.

Asardagi holat realiyalarining ingliz (Amerika)cha talqini ham o‘ziga xosdir. “Qutadg‘u bilig”ni ilk bor ingliz tiliga o‘g‘irgan tarjimon taniqli amerikalik turkshunos olim, AQSh Chikago universiteti professori R.Dankoffdir. U ilk turkiy obida tarjimasiga kirishishdan avval turkiy tillar, Markaziy Osiyo tarixi, islom va tasavvuf falsafasini maxsus o‘rgangan mutaxassis. Bu uning mazkur sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlaridan ham ko‘rinib turibdi. R.Dankoff “Qutadg‘u bilig” tarjimasini G‘arb tarjimashunosligi termini bilan ataladigan fuqarolashtirish, ya‘ni asliyat matnini tarjima tili muhitiga moslashtirish metodi bilan o‘g‘irgan. Shuningdek, u asliyatga muqobillikni ta‘minlashda imkon qadar maxsus izohlar, tushuntirishlardan qochgan. Ayni paytda qadimgi turkiy obidadagi qadimgi turkiy kolorit, tarixiy o‘ziga xoslikni ko‘p o‘rinlarda modernizatsiya, ya‘ni zamonaviylashtirishga urinishlari bor. Agar tarjimani amalga oshirishga nisbatan uni amalga oshirishga buyurtma berganlar nuqtayi nazariga ham qaraydigan bo‘lsak, ya‘ni tarjima kimlar uchun mo‘ljallangan? – degan savol tug‘iladigan bo‘lsa, arikalialarni “Qutadg‘u bilig”dagi davlat boshqaruvi haqidagi yo‘riqnomalar hamda O‘zg‘urmishning dunyoviy ishlarga qaytishi sabablari ko‘proq qiziqtirgan. Inglizcha tarjimadan ana shularni bilib olishimiz mumkin. Endi yuqoridagi bek huzurida o‘zni qanday tutishga oid holat realiyasining inglizch talqiniga keladigan bo‘lsak, qiyosiy tahlillardan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Dastlabki baytda asliyatda bek huzuriga kirib, unga yuzma-yuz bo‘lgan xizmatkor bir qadar qo‘rqib turishi kerakligi aytilib, *edi qorqu turg‘il kədəzgil əzyı (juda qo‘rqib turgin, o‘zingni saqlagin)* deyiladi. Inglizcha tarjimada esa *be modest and humble, know your place (kamtarin bo‘l, o‘z o‘rningni bilgin)* tarzida o‘g‘irilgan. Umuman olganda, tarjima to‘g‘ri, faqat bir qadar zamonaviylashtirilgan. Qo‘rqib turish bilan kamtarinlik saqlash o‘rtasida katta farq yo‘qdek. Har holda bu yerda andishaning otini qo‘rqoq qo‘ymaslik haqida gap ketmayapti. Faqat Yusuf Xos Hojib davrida begning oldida o‘zini ana shunday tutish aytilsa, zamonaviy tarjimada bir qadar o‘zini tuta bilish, qo‘rqish o‘rniga kamtarlikning kiritilganligi kuzatiladi. Bu unchalik noto‘g‘ri emas, chunki har qanday tarjima interpretatsiya ekanligini unutmazligimiz kerak. Keyingi baytda, ya‘ni beg oldida o‘zni to‘g‘ri tutish va til va ko‘ngilni bir qilish va qisqa so‘zlash haqida gap boradi. Baytning birinchi bandi aynan o‘g‘irilgan bo‘lsa-da, ikkinchisida so‘zning qisqa qilinishi tushirib qoldirilgan, ya‘ni qisqartirilgan. Ammo umumiy ma‘noga putur yetmagan. Umuman olganda, Yusuf Xos Hojib o‘z asarida til to‘g‘risida juda ko‘p fikr yuritadi. Uning o‘ziga xosligi ko‘proq tilni tiyishga, so‘zni qisqa qilishga borib taqaladi. R.Dankoff shoirning ana

shu niyatini to‘g‘ri tushungan ko‘rinadi. Endigi navbat ko‘z va quloqlarga kelganda, amerikalik tarjimon ham V.Radlov kabi quloqni qadashga nisbatan *place of honor* (*hurmatli joy*) variantini ma‘qul ko‘radi. Qizig‘i shundaki, R.Dankoff ham nemis tarjimoni kabi qo‘l qovushtirishda asliyatdagi chap o‘rniga o‘ngni almashtirib qo‘ygan. Ya‘ni, *the right hand above the left* (*o‘ng qo‘lni chap qo‘l ustiga*) tarzida. Keyingi o‘rinda navbat oyoqqa keladi. Aniqrog‘i, eshikdan kiraytganda o‘ng oyoq bilan kirish muhimligi ta‘kidlanadi. V.Radlov yuqorida ta‘kidlaganimizdek, qaysi oyoq bilan kirishni aytmay, umumiy ma‘nodagi kirish bilan kifoyalangan. R.Dankoff nemischa tarjimadagi bu kamchilikni tuzatgan *step with your right foot first* (*avval o‘ng oyog‘ingni bosgin*) tarzida aniq o‘g‘irgan. Shuningdek, *beg* oldiga kirish uchun asliyatdagi qadimgi turkiy *qapug‘* so‘zi hozirgi o‘zbek tiliga eshik, nemischaga ham unga muvofiq ravishda *Tür* (eshik) deb tarjima qilingan. Ammo inglizcha tarjimada R.Dankoff *gate* (*darvoza*)ni ma‘qul ko‘radi, chunki “Qutadg‘u bilig” asliyatidagi *qapug‘* bir paytning o‘zida ham eshik, ham darvoza ma‘nolarini anglatishi ham haqiqat. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz joizki, qadimgi turkiy tilda bunga o‘xshash hodisalarni ko‘p uchratish mumkin. Masalan, *kishi* deganda ham erkak, ham ayol kishi ko‘zda tutilavergan yoki *yig‘ach* ham yog‘och, ham daraxt ma‘nosida qo‘llangan. Nihoyat, bekka arznoma bilan murojaat qilish tasvirida muallif *Өтук өтнүр erkən tut əlig* (Arz aytayotganingda qo‘lni to‘g‘ri tut) desa, negadir inglizcha tarjimada *hold your hand out straight* (*qo‘lni cho‘zgin*) tarzida talqin qilingan. Aniqrog‘i, asliyat tarjimada yanada konkretlashtirilgan, chunki asliyatda faqat qo‘lni to‘g‘ri tutish haqidagina gap boradi. Tarjimon esa, uning aynan qanday tutilishigacha oydinlashtirishga harakat qilgan. Lekin yuqoridagi kamchiliklarga qaramay, inglizcha tarjima nemis tilidagi matnga nisbatan ancha asliyatga yaqinligi, tushunariligi va nisbatan tilining zamonaviyroq ekanligi bilan ajralib turadi. Asliyatdagi holat realiyalari tarjimada yo‘l qo‘yilgan ayrim mavhumliklarga qaramay o‘z o‘quvchisi uchun ancha tushunarli o‘g‘irilgan. Bir so‘z bilan aytganda “Qutadg‘u bilig” asarida yuzlab situativ realiyalar qo‘llanilgan. Ayniqsa, asar qahramoni O‘gdulmish Kuntug‘di elig bilan munosabati va unga aytgan pandlari borasidagi aksariyat boblarida bunday realiyalarni uchratishiniz mumkin. Maqola hajmidan kelib chiqib, biz ularning ayrimlarigagina e‘tibor qaratdik.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, situativ (holat) realiyalari realiyalarning muhim tarkibiy qismlaridan hosoblanadi va ularni tarjima qilish tarjimaning janriy xususiyatlarini aniqlash masalasiga borib taqaladi. Mazkur o‘rinda badiiy asardagi realiyalar tarjimasiga masalasi badiiy va ilmiy tarjima sohasiga taalluqli ekanligi ayonlashadi. Maqolada keltirilgan tahlillar davomida olingan natijalardan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Realialarga xos bo‘lgan muayyan makon va zamon sirasiga kiruvchi har bir holatda realiyalar u yoki bu ko‘rinishda situativlik kasb etadilar. Bunday realiyalar tarjimasiga alohida tayyorgarlik bilan murojaat etish talab qilinadi.

2. Tarjimon situativ realiyalarning muayyan kontekstda o‘ynagan roli, ularning situativlik kasb etish sabablarini aniqlashi kerak bo‘ladi.

3. Bir tomondan, muomala madaniyati alohida ahamiyatga ega. Bunda realiya o‘zi aynan biron-bir leksik birlik bilan berilmagan bo‘lsa ham, turli madaniyatlarga xos bo‘lgan ekstralingvistik omillar – murojaat shakllari, salomlashish yoki xayrlashishlar orqali ham ma’lum ma’noda situativlik kasb etib, asardagi realiyani ifodalashi mumkin bo‘ladi.

4. Situativ (holat realiyalari) tarjimasida oddiy so‘z realiyalardan transkripsiya va transliteratsiyalar, ortiqcha izoh va sharhlarsiz ham amalga oshirsa bo‘ladigan vositalar hisoblanadi.

5. Bunga tarjimondan asliyatdagi holat realiyalarining mohiyatini, ayniqsa, tasvirlangan imo-ishora va turqu-tarovatning mazkur matn kontekstida qanday ma’no kasb etishi va o‘ziga xos milliy bo‘yoqlari xususiyatlarini yaxshilab o‘rganish talab qilinadi.

6. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining nemischa va inglizcha tarjimalarini asliyat bilan qiyoslash natijalarining ko‘rsatishicha, nemischa tarjimada V.Radlov ko‘proq matnshunoslik asnosida asliyatga yondashib, transkripsiyada yo‘l qo‘ygan xatolar natijasida qadimgi turkiy realiyalar tarjimasida ham ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘ygan.

7. Asarning ingliz tilidagi tarjimasida amerikalik turkshunos olim va tarjimon R.Dankoff avvalgi kamchiliklarni bartaraf etib, asliyatga badiiy asar va muhim tarixiy yodgorlik sifatida munosabatda bo‘lgan va oldingi tarjimada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf eta olgan. Keyingi tarjimalarga aynan mana shu tarjimadan foydalanish tavsiya etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akhmanova, O.S. (1969). *Slovar’ lingvisticheskikh terminov*. Moskva: Izdatel’stvo «Sovetskaya entsiklopediya».
2. Alberts, O. (1901). Der Dichter des in uigurisch–türkischem Dialect geschriebenen Kudatku bilik (1069–70 p. Chr.) ein Schüler des Avicenna. *Archiv für Geschichte der Philosophie*, 14(3), 319–336. <https://doi.org/10.1515/agph.1901.14.3.319>.
3. Alosevičienė, E. (2022). Translation and adaptation of culture-bound words in subtitles: A case study of the Lithuanian historical drama film Emilia. *Breaking Free. Sustainable Multilingualism*, 20(1) 231-232. <https://doi.org/10.2478/sm-2022-0009>.
4. Arat, R.R. (Çevirm.). (1947). *Kutadgu Bilig* (I. Metin). Istanbul: Millî Eğitim Basımevi.
5. Arat, R.R. (Çevirm.). (1959). *Kutadgu Bilig* (II. Tercüme). Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.
6. Barkhudarov, L.S. (1975). *Yazyk i perevod: Voprosy obshchikh i chastnykh detaley perevoda*. Moskva: Izdatel’stvo «Mezhdunarodnyye otnosheniya».
7. Dankoff, R. (1979). *Textual problems in Kutadgu Bilig*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Drössiger, H.-H. (2017). Zum begriff und zu problemen der realien und ihrer bezeichnungen. *Vertimo Studijos*, 3, 36–52. <https://doi.org/10.15388/VertStud.2010.3.10587>.
9. Hajib, Y.Kh. (1983). *Wisdom of royal glory: A turko-islamic mirror for princes* (R.Dankoff (Transl.)). Chicago: University of Chicago Press.
10. Hartmann, M. (1902). Zur metrischen form des Kudatku Bilik. *Keleti Szemle*, 3, 141–153.
11. Hojib, Y.X. (1971). *Qutadg‘u bilig* (Karimov Q. (Nashr. tayyorl.)). Toshkent: “Fan” nashriyoti.
12. Ivanov, S.O. (Perev.). (1983). *Blagodatnoye znaniye*. Moskva: Izdatel’stvo «Nauka».
13. Khukhuni, G.T., Valuytseva, I.I., & Osipova, A.A. (2019). Interpretatsiya realiy pri

- perevode sakral'nogo teksta: yazykovoy i ekstralingvisticheskiy aspekty. *Russian Journal of Linguistics*, 23(2), 487–508. <https://doi.org/10.22363/2312-9182-2019-23-2-487-508>.
14. Malov, S.Ye. (1951). *Pamyatniki drevnetyurkskoy pis'mennosti*. Moskva: Izdatel'stvo «Akademii Nauk SSSR».
  15. Menzel, Th. (1925). Die ältesten türkischen Mystiker. *Zeitschrift Der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft*, 79(3/4), 269–289.
  16. Mitler L. (1988). *Ottoman Turkish writers*. Switzerland: Peter Lang Inc.
  17. Nadzhip, E.N. (1989). *Issledovaniya po istorii tyurkskikh yazykov, XI-XIV vv.* Moskva: Izdatel'stvo «Nauka».
  18. Nechayeva, I.V. (2023). Antroponimy v pis'mennoy rechi. *Voprosy onomastiki*, 20(1), 111–139. [https://doi.org/10.15826/vopr\\_onom.2023.20.1.007](https://doi.org/10.15826/vopr_onom.2023.20.1.007).
  19. Radloff, W. (1891). *Das Kudatku Bilik des Jusuf Chass-Hadschib aus Bälasagun* (2 bän.). Sankt Petersburg: Kaiserlichen Akademie der Wissenschaften.
  20. Razumovskaya, V.A. (2016). Perevodimost' kul'turnoy informatsii i strategii khudozhestvennogo perevoda. *Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta*, 4, 110–121. <https://doi.org/10.21638/11701/spbu09.2016.409>.
  21. Riesel, E., & Schendels, E. (1975). *Deutsche stilistik*. Moskau: Verlag Hochschule.
  22. Römer, Ch., & Matzke, B. (2005). *Lexikologie des Deutschen*. Tübingen: Gunter Narr Verlag.
  23. Rossel's, V.M. (1972). *Estafeta slova. Khudozhestvennyy perevod*. Moskva: Izdatel'stvo «Znaniye».
  24. Sadiqov, Z. (2019). “Qutadg‘u bilig” xronologik bibliografiyasi. Namangan: Namangan davlat universiteti.
  25. Sapogova, L.I. (1979). Realii: faktor vremeni. V sbornike *Voprosy lingvisticheskoy semantiki* (Vyp. 3, ss. 54–61). Tula: Tul'skiy gosudarstvennyy pedagogicheskiy universitet im. L.N. Tolstogo.
  26. Sobolev, L.N. (1952). *Posobiye po perevodu s russkogo yazyka na frantsuzskiy*. Moskva: Izdatel'stvo inostrannoy literatury.
  27. Stebleva, I.V. (1971). *Razvitiye tyurkskikh poeticheskikh form v XI veke*. Moskva: Izdatel'stvo «Nauka».
  28. Stebleva, I.V. (1976). *Poetika drevnerusskoy literatury i yeye transformatsiya v ranneklassicheskiy period*. Moskva: Izdatel'stvo «Nauka».
  29. Tekin, T. (1989). Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A turko-islamic mirror for princes. Yusuf Khass Hajib, Robert Dankoff. *Journal of Near Eastern Studies*, 48(1), 68–70. <https://doi.org/10.1086/373364>.
  30. Timofeyev, L.I., & Turayev, S.V. (1974). *Slovar' literaturovedcheskikh terminov*. Moskva: Izdatel'stvo «Prosveshcheniye».
  31. Uçar, E. (2015). Kutadgu Bilig'in kronolojik kaynakçasi (1825-2016). *Uluslararası Uygur Araştırmaları Dergisi*, 6, 6-47.
  32. Valitova, A.A. (1958). K voprosu o fol'klornykh motivakh v poeme «Kutadgu bilig». *Sovetskoye vostokovedeniye*, 5, 88–102.
  33. Vaysburd, M.L. (1972). Realii kak element stranovedeniya. *Russkiy yazyk za rubezhom*, 3, 23–29.
  34. Vlahov, S., & Florin, S. (2006). *Neperevodimoye v perevode* (3-ye izd.). Moskva: Izdatel'stvo «R.Valent».

## REFERENCES

1. Akhmanova, O.S. (1969). *Dictionary of linguistic terms*. Moscow: Publishing House of ‘Soviet Encyclopedia’.
2. Alberts, O. (1901). The poet of Kudatku bilik (1069–70 B.C.), written in Uighur-Turkish dialect, a student of Avicenna. *Archives for the History of Philosophy*, 14(3), 319–336. <https://doi.org/10.1515/agph.1901.14.3.319>.
3. Alosevičienė, E. (2022). Translation and adaptation of culture-bound words in subtitles:

- A case study of the Lithuanian historical drama film Emilia. Breaking Free. *Sustainable Multilingualism*, 20(1) 231-232. <https://doi.org/10.2478/sm-2022-0009>.
4. Arat, R. (Trans.). (1959). *Kutadgu Bilig* (2nd transl.). Ankara: Turkish Historical Society Publications.
  5. Arat, R. (Transl.). (1947). *Kutadgu Bilig* (Text 1). Istanbul: Printing House of 'National Education'.
  6. Barkhudarov, L.S. (1975). *Language and translation: Questions of general and specific details of translation*. Moscow: Publishing House of 'International Relations'.
  7. Dankoff, R. (1979). *Textual problems in Kutadgu Bilig*. Cambridge: Cambridge University Press.
  8. Drössiger, H.-H. (2017). On the concept and problems of realia and their designations. *Translation Studies*, 3, 36–52. <https://doi.org/10.15388/VertStud.2010.3.10587>.
  9. Hajib, Y.Kh. (1971). *Kutadgu bilig* (K.Karimov (Ed.)). Tashkent: Publishing House of 'Science'.
  10. Hajib, Y.Kh. (1983). *Wisdom of royal glory: A turko-islamic mirror for princes* (R.Dankoff (Transl.)). Chicago: University of Chicago Press.
  11. Hartmann, M. (1902). On the metric form of Kutadgu Bilig. *Eastern Review*, 3, 141–153.
  12. Ivanov, S.O. (Transl.). (1983). *Kutadgu Bilig*. Moscow: Publication House of 'Science'.
  13. Khukhuni, G.T., Valuitseva, I.I., & Osipova, A.A. (2019). Cultural words in sacral text and their translation: Linguistic and extra-linguistic factors. *Russian Journal of Linguistics*, 23(2), 487–508. <https://doi.org/10.22363/2312-9182-2019-23-2-487-508>.
  14. Malov, S.Y. (1951). *Monuments of ancient Turkic writing*. Moscow: Publishing House of the USSR Academy of Sciences.
  15. Menzel, Th. (1925). The oldest Turkish mystics. *Journal of the German Oriental Society*, 79(3/4), 269–289.
  16. Mitrler, L. (1988). *Ottoman Turkish writers*. Switzerland: Peter Lang Inc.
  17. Najip, E.N. (1989). *Research on the history of Turkic languages, XI-XIV centuries*. Moscow: Publication House of 'Science'.
  18. Nechaeva, I.V. (2023). Anthroponymy in written speech. *Issues of Onomastics*, 20(1), 111–139. [https://doi.org/10.15826/vopr\\_onom.2023.20.1.007](https://doi.org/10.15826/vopr_onom.2023.20.1.007).
  19. Radloff, W. (1891). *Kudatgu Bilig of Yusuf Khass Hajib Balasaguni* (2 vols.). Saint Petersburg: Imperial Academy of Sciences.
  20. Razumovskaya, V.A. (2016). Translatability of cultural information and strategies of literary translation. *Bulletin of Saint Petersburg University*, 4, 110–121. <https://doi.org/10.21638/11701/spbu09.2016.409>.
  21. Riesel, E., & Schendels, E. (1975). *German stylistics*. Moscow: Publishing House of 'University'.
  22. Römer, Ch., & Matzke, B. (2005). *Lexicology of German*. Tübingen: Publishing House of 'Gunter Narr'.
  23. Rossels, V.M. (1972). *Relay word: Literary translation*. Moscow: Publishing House of 'Knowledge'.
  24. Sadikov, Z. (2019). *Chronological bibliography of 'Kutadgu Bilig'*. Namangan: Namangan State University.
  25. Sapogova, L.I. (1979). Realias: the time factor. In *Questions of Linguistic Semantics* (Iss. 3, pp. 54–61). Tula: Tula State Pedagogical University named after L.N. Tolstoy.
  26. Sobolev, L.N. (1952). *Manual of translation from Russian into French*. Moscow: Publishing House of 'Foreign Literature'.
  27. Stebleva, I.V. (1971). *Development of Turkic poetic forms in the 11th century*. Moscow: Publication House of 'Science'.
  28. Stebleva, I.V. (1976). *Poetics of old Russian literature and its transformation in the early classical period*. Moscow: Publication House of 'Science'.
  29. Tekin, T. (1989). *Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A turko-islamic mirror for*

- princes. Yusuf Khass Hajib, Robert Dankoff. *Journal of Near Eastern Studies*, 48(1), 68–70. <https://doi.org/10.1086/373364>.
30. Timofeev, L.I., & Turaev, S.V. (1974). *Dictionary of literary terms*. Moscow: Publishing House of 'Education'.
  31. Uçar, E. (2015). Chronological bibliography of Kutadgu Bilig (1825–2016). *International Journal of Uyghur Studies*, 6, 6-47.
  32. Valitova, A.A. (1958). On the question of folklore motifs in the poem "Kutadgu Bilig". *Soviet Oriental Studies*, 5, 88–102.
  33. Vaysburd, M.L. (1972). Realias as an element of regional studies. *Russian Language Abroad*, 3, 23–29.
  34. Vlahov, S., & Florin, S. (2006). *The untranslatable in translation* (3rd ed.). Moscow: Publishing House of 'R.Valent'.